



DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARINING XARAJATLAR OPTIMALLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayeva Ma'rifat Erkinbayevna

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

marifatabdullaeva5@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat ta'lim tashkilotlarining jumladan o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ro'yhatdan o'tkazish tartibining o'ziga xos xususiyatlari, shtatlar jadvalini tuzishda ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari tarifikasiya ro'yxatini shakllantirishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, davlat ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetasi hujjatlarini UzASBO dasturiy majmuasida shakllantirish bosqichlari, xarajatlar moddalari bo'yicha sarf-xarajatlarni rejalashtirish bo'yicha tegishli xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat ta'lim muassasasi, budget tashkilotlari, budget mablag'lari oluvchilar, xarajatlar smetasi, daromadlar, moliya yili, budget, shtatlar jadvali, xarajatlar moddasi, tarifikasiya.

Abstract: This article focuses on the specific features of the procedure for compiling, approving and registering cost estimates and staffing tables of state educational organizations, including secondary specialized educational organizations, and on improving the formation of tariff lists of pedagogical staff of educational organizations when compiling staffing tables. In addition, the stages of forming cost estimate documents of state educational organizations in the UzASBO software complex, relevant conclusions on planning expenditures by expense items, and recommendations are developed.

Key words: state educational institution, budget organizations, recipients of budget funds, cost estimate, income, fiscal year, budget, staffing table, cost item, tariffication.

Аннотация: В данной статье рассматриваются специфические особенности процедуры составления, утверждения и регистрации смет расходов и штатных таблиц государственных образовательных организаций, включая средние специализированные образовательные организации, а также вопросы совершенствования формирования тарифных списков педагогического персонала образовательных организаций при составлении штатных таблиц. Кроме того, рассматриваются этапы формирования сметных документов государственных образовательных организаций в программном комплексе УзАСБО, приводятся соответствующие выводы по планированию расходов по статьям затрат и даются рекомендации.





Ключевые слова: государственное образовательное учреждение, бюджетные организации, получатели бюджетных средств, смета расходов, доход, финансовый год, бюджет, штатное расписание, статья расходов, тарифификация.

Kirish:

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohaga xususan ta'lim va ilm –fan sohalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev o'zining "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvolini tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar.

Bugungi kunda O'zbekistonimizning barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar behisobdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayrim umumta'lim maktablarida xarajatlarni rejalashtirishda me'yoriy hujjatlar va real ehtiyojlar o'rtasida tafovutlar mavjud. Natijada ortiqcha xarajatlar, resurslarning samarasiz taqsimlanishi, ayrim shtat birliklarining ortiqcha yoki yetishmasligi kabi holatlar yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, maktablarning moliyaviy barqarorligiga, ta'lim sifati va xodimlar mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni tahlil qilish va optimallashtirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish zarurdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini tuzish va tasdiqlash jarayonlariga oid ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar sohadagi turli nazariy va amaliy jihatlarni qamrab oladi. Ushbu mavzuga oid masalalarda xorijlik va mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Davlat ta'lim tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish tasdiqlash va ro'yhatga olishning nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga V.Bashkatov, V.Pokusaevlarni kiritish mumkin. V.Bashkatov va Yu.Pokusaevlar(2014 yil) tadqiqotlarida budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha smetalar ijrosi hisobi va nazoratini tashkil etish xususiyatlari tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bu masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalar, shuningdek, e'lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda o'rganilgan. Jumladan, Tuychiev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S."Budjet tashkilotlarida budjet hisobi" darsligi O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlarida yuritiladigan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot masalalariga bag'ishlangan muhim o'quv manbadir. Darslikda budjet tashkilotlarida budjet hisobi





yuritishning nazariy asoslari, huquqiy-me'yoriy bazasi hamda amaliy jihatlar batafsil yoritilgan. Mualliflar budget tizimi faoliyatini amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar asosida tushuntirib bergan.

S.Mexmonovning ilmiy ishlarida esa, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larini to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar, o'qitishning to'lov-kontrakt shakli mablag'lari, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va boshqa budgetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil etish, ularda xarajatlar smetasini tuzish va shakllantirish tartibi keltirilgan.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlarda mavzuga oid umumiy qarashlar keltirilgan bo'lsada, biroq, aynan davlat ta'lim tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ro'yhatga olish masalasi alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti va yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinmagan. Bu holat mazkur mavzuda kompleks ilmiy izlanishlar olib borish va tadqiqot vazifalarini belgilashni taqozo etmoqda.

Metodologiya.

Tadqiqot davomida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rganishda ilmiy usullardan—umumlashtirish, guruhlashtirish va taqqoslash, monografik tadqiqot, iqtisodiy kuzatish, abstrakt-mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik usullar, istiqbolli prognozlash hamda boshqa metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda budget tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalo, budget tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Bunda budget tashkilotlari xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash, ularni ro'yxatdan o'tkazish hamda smeta ijrosi bo'yicha yakuniy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish masalalari o'zaro bog'liq, tizimli jarayon bo'lib, ularni muntazam takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Budgetnoma 2025 – 2027-yillardagi budget siyosatining asosiy yo'nalishlari ya'ni, budget kalendarini qayta ko'rib chiqish orqali budget jarayonini takomillashtirish yo'nalishiga ko'ra:

- budget ko'rsatkichlarini ishlab chiqish sifatini oshirish hamda ishonchliligini yanada kuchaytirish maqsadida budget tashkilotlarining va budget mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish davrini 2025-yildan boshlab 3 oydan (*I chorak uchun tuzilardi*) 1 oyga (*yanvar oyi uchun*) tushirildi hamda 2026-yildan boshlab vaqtinchalik xarajatlar smetasi tuzish tartibini bekor qilindi. Bunda, budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, budget mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetalarini (*bazaviy smeta*) tasdiqlash muddatini oldinga surish orqali Fiskal strategiyani ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish muddatlari qayta ko'rib chiqilib, Fiskal strategiyani Vazirlar Mahkamasida muhokama qilish davriyligini uzaytirish hamda buning natijasida hujjatning ishonchliligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

O'rta maxsus kasb xunar va oliy ta'lim tashkilotlari xarajatlar smetalarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini, shuningdek shtat jadvallarini normativ-huquqiy hujjatlar asosida mustaqil ravishda tuzadilar.

Umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xarajatlar smetalari, daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallari markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tomonidan tuziladi, ro'yxatga olinadi, shuningdek tegishli jamlanma smetalariga va shtat jadvallariga umumlashtiriladi.

Budjet tizimi budjetlari xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda o'zgacha ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli budjet mablag'larini taqsimlovchilar hamda iqtisodiyot va moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Xarajatlar smetasining asosiy qismini I-guruh xarajatlari tashkil qiladi. Bunda tashkilotning shtatlar jadvalini to'g'ri tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida akademik litseylar misolida shtatlar jadvali va tarifikasiya jarayonlariga e'tibor qaratamiz.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining tipi	Kontingent soni (kishi)			
	I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
Akademik litsey	851 nafar va undan ortiq	651—850	401—650	400 nafargacha
Kasb-hunar kolleji	1051 nafar va undan ortiq	751—1050	451—750	450 nafargacha

1-jadval. Davlat ta'lim tashkilotlarida boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari uchun alohida lavozimlarni kiritish me'yorlari¹

Akademik litsey va texnikumlar boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarida nazarda tutilmagan akademik litsey va texnikumlar boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining alohida lavozimlari mazkur Me'yorlarga muvofiq kiritiladi:

Tasdiqlangan xarajatlar smetasi tegishli moliya organlarida ro'yxatdan o'tmagunga qadar yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Budjet mablag'larini taqsimlovchilar ularga etkazilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmi doirasida moliyalashtiriluvchi budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalari zarur hollarda mazkur tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi. Bunda xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi budjet mablag'larini taqsimlovchilar quyidagilarni amalga oshirish majburiyatlari va vakolatlariga ega:

¹ Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida" gi 165-son Qarori



– qonun hujjatlari talablariga, shuningdek, kelgusi yil xarajatlar smetalarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

– tejamkorlik rejimiga amal qilgan holda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar kiritishga yo'l qo'ymaslik;

– alohida tadbirlarni o'tkazish muddatlari va ularni moliyalashtirishni ta'minlash imkonini hisobga olgan holda xarajatlar smetasi bo'yicha budjetdan ajratiladigan mablag'larni chorak (oy)larga taqsimlashni ta'minlash;

– hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo'l qo'ymaslik.

Budjet mablag'larini taqsimlovchilar xarajatlar smetasi asoslanganligini chuqurroq o'rganish maqsadida moliyalashtiriluvchi budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida ularga doir hisob-kitoblarni talab qilishga haqli.

Agar budjet tashkiloti va budjet mablag'lari oluvchilarning ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlar summasi belgilangan tartibda ularga etkazilganiga nisbatan ortiq bo'lsa, budjet mablag'larini taqsimlovchi tegishli summaga bo'ysunuvidagi budjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni qisqartirishga majbur. Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasida xarajatlar summasining oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa va takliflar:

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligi hamda samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biridir. Mavjud tizimda ayrim nomutanosibliklar, ortiqcha xarajatlar va mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmasligi holatlari aniqlangan. Bu esa moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli nazorat vositalarini keng joriy etish va normativ asoslarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- umumta'lim maktablarida budjet mablag'larining taqsimoti hududlar kesimida notekis shakllangan bo'lib, ayrim maktablarda moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi past.

- Shtatlar jadvalini shakllantirishda real ehtiyoj va normativ ko'rsatkichlar o'rtasida tafovutlar mavjudligi mehnat unumdorligini pasaytiradi va ortiqcha xarajatlarga sabab bo'ladi.

Shuningdek, xarajatlarning katta qismi ish haqi to'lovlariga yo'naltirilgani sababli, o'quv infratuzilmasi, texnik ta'minot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga ajratilayotgan mablag'lar yetarli emas.

Raqamli monitoring va tahlil tizimlarining yo'qligi xarajatlarni nazorat qilishni qiyinlashtirib, shaffoflikni pasaytiradi. Bundan tashqari, maktab rahbarlari va moliya





xodimlarining iqtisodiy tahlil va moliyaviy boshqaruv sohasidagi malakasi yetarli darajada emasligi aniqlangan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surildi: birinchidan, maktab budjetining har bir yo‘nalishi bo‘yicha xarajatlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi raqamli monitoring tizimini joriy etish zarur. Bu tizim shaffoflikni oshiradi va ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

Ikkinchidan, shtatlar jadvalini hududiy va demografik omillarni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish lozim. Xodimlar soni va lavozimlarini optimallashtirish, ayniqsa texnik xodimlar sonini me‘yorlashtirish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy tahlil madaniyatini rivojlantirish uchun maktab rahbarlari va moliya mutaxassislari uchun maxsus o‘quv kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etish kerak.

To‘rtinchidan, iqtisodiy samaradorlik indikatorlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Har bir maktab uchun “xarajat–natija”, “o‘quvchi boshiga to‘g‘ri keladigan xarajat” va “mehnat unumdorligi indeksi” kabi ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimini shakllantirish zarur.

Beshinchidan, normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish lozim. Umumta’lim muassasalarida smeta tuzish va shtatlar jadvalini shakllantirish tartibini qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy iqtisodiy talablar va raqamli transformatsiya jarayonlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, o‘quv infratuzilmasiga investitsiyalarni ko‘paytirish ta’lim sifatini oshirish uchun zarurdir. Budjetdan ajratiladigan mablag‘larning bir qismini innovatsion texnologiyalar, laboratoriyalar va raqamli ta’lim vositalariga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini optimallashtirish nafaqat moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, balki ta’lim sifati, o‘qituvchi mehnat unumdorligi va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi akademik litseylar misolida butun respublika miqyosida ta’lim tizimi samaradorligini oshirishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2013-yil 26-dekabr, O‘RQ-360-son. <https://lex.uz/docs/5535058>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyul PF-82-son “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi maqsadlariga erishishda davlat budjeti mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/7015258>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2019-yil 8-oktyabr, PF-5847-son “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4511474>





4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-may, PF-82-son “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga ta’lim kreditlari berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

5. Ruziev, K. (2025). Financing higher education in Uzbekistan: Trends and challenges. Springer Journal of Asian Economics

6. International Journal of Management, IT & Engineering (2022). Budget Accounting Standards in Higher Education Institutions of Uzbekistan.

https://www.ijmra.us/project%20doc/2022/IJMIE_JUNE2022/IJMIE5June22.pdf

